

XOHISH-ISTAK MAYLINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR FRANSUZ TILI MIQIYOSIDA

Xolikulov Orzumurod Ravshan o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi

Milliy Universiteti 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Til tarkibining asosiy qismini fe'l so'z turkumi egallaydi. Fe'ning gapda ifodalayotgan ma'nosi makon va zamon oralig'ida yuz berayotgan ish harakatni ko'rsatadi. Fransuz tilida subjonctif (xohish-istak) maylining yasalishi uchun ham turli xil vositalar gapda faol qatnashadi. Ilmiy maqoladan ko'zlangan maqsad subjonctif (xohish-istak) zamoni bilan birgalikda ishlatiladigan vositalarni qo'llanish o'rni va vazifalarini yoritib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: le subjonctif (xohish-istak mayli), Le présent du subjonctif (hozirgi zamon xohish-istak mali), ergashgan qo'shma gaplar, les verbs impersonnels (shaxssiz fe'llar), les locution (iboralar).

Аннотация: Основную часть структуры языка занимает глагольная группа. Значение глагола в предложении показывает действие, происходящее в пространстве и времени. Во французском языке в образовании сослагательного наклонения активно участвуют различные приемы. Цель научной статьи – выяснить роль и функции средств, употребляемых вместе с сослагательным наклонением.

Ключевые слова: le subjonctif, Le présent du subjonctif, последующие союзы, les verbs impersonnels, les locution.

Annotation. The main part of the structure of the language is occupied by the verb group. The meaning of a verb in a sentence shows an action taking place in space and time. In the French language, various techniques are actively involved in the formation of the subjunctive mood. The purpose of the scientific article is to find out the role and functions of the means used together with the subjunctive mood.

Keywords: le subjonctif, Le présent du subjonctif, subsequent conjunctions, les verbs impersonnels, les locution.

Yer yuzidagi jamiyki tillar sathining mukammal shakllanishi til evolutsiyasida qaror topgan va biz ifodalamoqchi bo'lgan his-tuyg'ularni o'zida mujassam qilgan til birliklari bilan bog'liq holda o'zgarib, sayqallanib boradi. Til sathida ma'lum bir o'zgarish yoki qardosh tillarda uchraydigan birlik, grammatik shakl va ba'zi qo'shimchalarning bir til tizimida yuzaga chiqishi qisqa muddatda sodir bo'lmaydi ya'ni tilning integrallashishi uchun yillar, hattoki asrlar talab qilinadi. Fransuz tili Roman tillari oilasining asosiy bir bo'g'ini hisoblanib, bu tilning shakllanishi eramizdan oldingi asrlarga borib taqalashini va yaqin o'tmishdagi fransuz tili bilan hozirgi fransuz tilining o'rtasida farqli tafovutning o'ta yuqori emasligini ko'rishimiz mumkin. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, tashqi omillarning til sistemasiga ta'siri yillar mobaynida o'z aksini ko'rsatadi..

Fransuz tilida bir qancha mayl shakllari mavjud bo'lib, aniqlik, buyruq, xohish-istak va shart mayllari kabi turlarga bo'linadi. Har bir shakl yasalishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, har bir birlik turli xil ma'nolarni ifodalashga yordam beradi. Masalan, aniqlik mayli bajarilayotgan ish-harakatga bo'lgan munosabat, xabar va darak ma'nolarini bildiradi, shart mayli esa bajarilayotgan harakatga shartlilik ma'nolarini yuklaydi, buyruq mayli esa undov, chaqiriq va undash ma'nolarini yuklasa, xohish-istak mayli esa amalga oshirilayotgan harakatga xohish, istak, shubha va gumon kabi ma'nolarini yuklashga xizmat qiladigan birliklar hisoblanadi. Bu kabi vositalarning til tarkibida ko'plab uchrashi til sathini boyitadi, jozibador qiladi.

Subjonctif (xohish-istak) mayli aniq natijani ifodalashga xizmat qiladigan aniqlik maylidan farqli ravishda biror bir kishining o'zigagina xos bolgan maylini va aytilayotgan nutqda shaxsiy munosabatini ifodalaydi va nutq so'zlayotgan shaxsning aql-idrokidagi harakatni namoyon qiladi. Subjonctif mayli ko'pincha ergashgan qo'shma gaplar tarkibida qo'llanadi. Bu mayl to'rtta zamon shakliga ega: le présent va l'imparfait kabi sodda va le passé va le plus-que-parfait kabi qo'shma zamonlarni o'z ichiga oladi.

Le présent du subjonctif hozirgi yoki kelasi zamon ma'nosidagi harakatni ifodalaydi;

- Il est mécontent que vous nous quittiez si vite.

- Il faut que tu ailles à l'école pour étudier.

Subjonctif mayli murakkab ergashgan qo'shma gaplarda istak, iltimos, zaruriyat va ruxsat kabi ma'nolarga bog'liq bo'lgan barcha fikrlar va xohishni ifodalovchi fe'llardan so'ng qo'llaniladi. Bu kabi fe'llarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Vouloir- xohilamoq

préférer- yoqtirmoq

Souhaiter- tilamoq

aimer- yaxshi ko'rmoq

Avoir besoin- muhtoj bo'lmoq

souffrir- azoblanmoq

Ushbu fe'llarning ishlatilishini quyidagi misollar orqali keltirib o'tamiz:

- Je n'**aimerais** pas qu'il devienne acteur.

- J'**insiste** pour que vous le fassiez tout de suite.

- Elle **déteste** qu'on se mêle de ses affaires.

Shu bilan bir qatorda subjonctif mayli shodlik, g'amginlik, o'kinish, hayratlanish, jahl va qo'rquv kabi hissiyotni ifodalaydigan iboralar yoki fe'llardan keyin ham ishlatilishi mumkin. Asosiy hissiyot ifodalaydigan ibora va fe'llar quyidagilar:

être content

être heureux,

être ravi

être fâché Se

réjouir

être chagrine

être désolé

être irrité

Bu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda bu birliklar subjonctif maylining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanib, tilning jozibadorligiga o'z hissasini qo'shadi. Bu iboralardan foydalanish o'ziga yarasha qiyinchilik talab qiladi. Ushbu birkmalarning ishlatilishini qo'yidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

- Il est irrité que tu le contredises à tout propos.

- Je suis ravi que vous acceptiez de nous accompagner.

Je suis très touché que vous vouliez vous occuper vous de mon affaire.

Xohish-istak maylini ko'pgina zaruriyat, hissiyot, shubha va imkoniyatni ko'rsatadigan shaxssiz ibora va fe'llardan so'ng ham qo'llanishini uchratish mumkin. Nutqimizda ko'p ishlatiladigan va gapda o'zidan keyin subjonctifni talab qiladigan ushbu iboralar murakkab

ergashgan qo'shma gaplarni hosil qiladi. Bu kabi birliklardan bir nechtasini sanab o'tishimiz mumkin:

Il faut que	Il est important que
Il vaut mieux que	il est utile que
Il est possible que	il est douteux que

Ushbu iborlarning qo'llanishini quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

- **Il est desirable** que tu lises avantage.
- **Il est bon que** tu le retienne une fois pour toutes.
- **Il est grand temps** que vous parties.
- **Il faut** que je te voie ce soir.

Bunday birliklarni til sathida ko'plab uchratish mumkin, lekin bu iboralarning nutqda qo'llashda bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu kabi birlikni nutqda ishlatish uchun mayllar kategoriyasini grammatik jihatdan yetarlicha tahlil qilib, o'rganish talab qilinadi. G'arb tilshunosligida o'z o'rniga ega bo'lgan – fransuz tilini o'rganishga bo'lgan e'tibor yil sayin ko'tarilib, til ravnaqiga o'z hissasini qo'shayotgan ko'pgina tilshunos olimlarning haraklari natijasi yetarlicha qo'llanma va darsliklarning turli tillarga tarjimasini talaba-yoshlar uchun juda keng imkoniyatni paydo qilmoqda. Buning ustiga ko'plab yosh tadqiqotchi olimlar til o'rganishning osonlashtiruvchi ko'pgina metod va usullarni ommaga taqdim etishmoqda. Bunday imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanish til sistemasida uchraydigan ko'plab qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi, xususan xohish-istak maylining nutqda qo'llashining ko'pgina oson yo'llarini o'rganuvchi yoshlarga taqdim etadi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, til sathi doim o'zgarishda, tur xil ta'sirlar va iqtisodiy aloqalar tufayli yanada sayqal topib, rivojlanishda davom etadi. Shu sababli til ijtimoiy hodisa bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E. Mamatov, M. M. Mirxoliqov, A. S. Asqarov, Fransuz tilining amaliy grammatikasi, Toshkent-2015.
2. Bayram Balci, dictionnaire français-ouzbek, Toshkent 2008.
3. L. E. Mallina, O'. Turniyozov, Grammaire française, "O'qituvchi" nashriyoti, 1978.
4. Z. Abdushukurova, H. Yusupova, M. Nichanov, Le nouvel voyage en France, Toshkent «O'zbekiston» 2014.
5. Z. Davronova, E. Xudayberganova, F. Badalov, D. Otamurodova, G'. Masharibov, V. Nazarova, Méthode de français, G'afur G'ulom nashriyoti, Toshkent 2000.
6. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
7. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 348-354.
8. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 348-354.

10. Ilxomovna, Djafarova Dildora. "The emergence of the concept of "historical memory" in linguistics and the history of its socio-cultural formation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.3 (2022): 169-173.
11. Ilxomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
12. Rahmonova, Gulnoza, and Dildora Djafarova. "Explanation of the term" neologism." in linguistics. In *Конференции*. 2021.
13. Ilxomovna, Djafarova Dildora. "Fransuz va o 'zbek frazeologiyasida "tarixiy хотира" ni ifodalashda til o 'yinlarini o 'zaro ta'siri (ahamiyati)." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.1 (2021): 255-259.
14. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
15. Яхшибоева, Нодира. "ТУРИСТИЧЕСКИЙ ДИСКУРС КАК ОДИН ИЗ ОСОБЫХ ВИДОВ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО ДИСКУРСА." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.6 (2023): 879-884.
16. Karimov Jamshidbek Shavkat ugli. LE discours patronal et discours patronal et discours de propagande. <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/3919>